

BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA ADABIYOTLARNING O'RNI.

Navbaxor Hasanova,
Musiqiy ta'lim kafedrası
katta o'qituvchisi.

Muqaddas Muminova,
Musiqiy ta'lim
kafedrası o'qituvchisi.

Annotatsiya: Bo'lajak barkamol avlodlar bizning kelajagimiz, ularga berilgan to'g'ri tarbiya yuksak milliy axloq va e'tiqod kelajagimiz xayrli bo'lishini, millatimiz obro'sini va nufuzini saqlab qolishimizni va uni yanada yuqori cho'qqilarga ko'tarishimizni ta'minlaydi. Bu ishda bizga eng yaxshi qo'llanma qanday janr va yo'nalishda bo'lmasin o'zida axloqiy g'oyalar, ibratli jumalarni aks ettirgan adabiyotlar ekanligi haqida ushbu maqolada fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, tarbiya, milliy an'ana, urf-odat, vatanparvarlik, poklik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik.

Millat tarbiyasi hamma zamonlarda ham eng dolzarb masala bo'lib kelgan. Sharq mutafakkirlari farzand tarbiyasiga alohida e'tibor berib kelganlar. "Kalila va Dimna" nomi bilan mashhur bo'lgan hindlarning "Panchatatra" (Besh hikmat), "To'tinoma" shuhrat qozongan "Shukasaptati" (To'tining yetmish hikoyasi), Yusuf Xos Xojibning "Qutatg'u bilig" (Baxt saodatga yo'llovchi bilim), Muslihiddin Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston", Nosiriddin Rag'buzyning "Qissasi Rag'buzy", Alisher Navoiyning "Maxbub ul qulub" (Ko'ngillarnin sevgani), "Hayrat ul-abror" (Yaxshi kishilarning hayratlanishi), Gulxaniyning "Zarbulmasal" kabi o'nlab durdona asarlari ko'p asrlar davomida farzandlar tarbiyasida dasturulamal vazifani o'tab kelmoqda.

Bu asarlar necha-necha avlodga vatanparvarlik, poklik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik kabi ko'plab insoniy fazilatlarni singdirib kelayotgani sir emas. Mana shunday tarbiyaviy jihatdan qimmatli asarlar orasida Unsurulmaoliy Kaykovusning "Qobusnoma" asari Sharq xalqlari orasida ma'lum va mashhurdir. Bu asar 1860 yilda o'zbek tiliga birinchi marta buyuk o'zbek shoiri va mutaffakkir Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan tarjima qilindi. Asar 44- bobdan iborat bo'lib, barcha boblar inson tarbiyasiga oid pand- nasihat va hikoyatlardan tashkil topgandir.

Bizga ma'lumki, sharq xalqlarida milliy an'ana, urf-odat, udum va hatto turmush tarzlarida bir-biriga yaqinlik, o'xshashlik, qadriyat sirli umumiylik mavjud. Mana shu jihatlar G'arb xalqlaridan farqli, o'laroq Sharq xalqlarida o'ziga xos fazilatlar paydo qilganki, bunda biz yuqorida nomlarini qayd etgan tarbiyaviy asarlarning alohida o'rni bor deb o'ylaymiz.

Ma'lumki, Sharq xalqlari hayotida ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar, mehmonnavozlik, sahovatpeshalik kabi fazilatlar g'arb xalqlaridan tubdan farq qiladi. Bu borada o'zbek xalqi ham boshqalarga ibrat bo'larli fazilatlarga ega. Masalan er-xotin o'rtasidagi nikohni har ikkala jins vakili tomonidan muqaddas deb bilishi va uni umr bo'yi saqlab qolishga bo'lgan intilishi, shuningdek ota- onalar tomonidan farzandlarga ko'rsatilayotgan mehr, ularni ulg'aytirib jamiyatga foydali shaxs etib, tarbiyalashga bo'lgan intilish, farzandlarning ota-onalarga bo'lgan g'amxo'rliqi, ularning keksaygan, kuchdan qolgan yoki kasalmand bo'lganlarida parvarishlashga bo'lgan intilishlari mana shu sharqona tarbiya maxsuli bo'lib, uni har bir ota-ona yoki farzand maxsus buyruq yoki ko'rsatma orqali emas, balki o'z hoxishi bilan vijdonan bajarishi umumsharqona tarbiya mahsulidir.

Bu borada diniy ta'lim-tarbiyaning ham munosib o'rni bo'lib, "Qur'oni Karim" va "Hadisi Sharif"larda bayon qilingan ibratli kalimalar va ularning ma'nosini to'g'ri talqin etishning muhim ahamiyati bor.

J.To'lanov o'zining "Qadiryatlar falsafasi" kitobida "Jamiyat taraqqiyoti quyi bosqichlardan yuqori bosqichga, o'tmishdan kelajakka tomon rivojlanib borgan sari ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, siyosiy taraqqiyotga xalq ommasining roli, g'ayrati, uyushqoqligi ortib va chuqurlashib, inson amaliy faoliyati jadallashib boradi . Bu umuminsoniyatga xos qonuniyatdir. Jamiyatimiz tarixiy maqsadlarining ko'lami keng. Inson shaxsi barkamol bo'lsa, faol mexnat qilsa, ijtimoiy-siyosiy ishlarda faol ishtirok etsa, mamlakatimiz shu qadar tez rivojlanadi va mustahkamlanadi. Insonning ijodi, tashabbusi jamiyatimizning kuchi va hayotiyligining eng muhim manbaidir" deb ta'rif bergan.

Darhaqiqat, oldimizga rivojlangan demokratik huquqiy jamiyat qurishni maqsad qilgan ekanmiz eng avval ushbu jamiyatni quruvchi fuqaroni ya'ni har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalab yetishtirishimiz zarur.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq bu ishga jadal kirishildi. Ayniqsa ta'limni isloh qilish 1997-yil avgust oyida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlar hamda ularning bajarilishini muvaffaqiyat bilan olib borish jamiyatimizning shu 24 yil davomida jadal rivojlanishini ta'minladi. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov "Men Abdullo Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot- yo momot, yo jannat- yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan fikrini ko'p mushohada qilaman. Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir. Chunki ta'lim-tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib

bo‘lmaydi. Ongni tafakkurni o‘zgartirmasdan turib esa biz ko‘zlagan oiliy maqsad-ozod va obod jamiyatni barpo etib bo‘lmaydi” degan edilar.

Milliy qadriyatlarimiz bo‘lmish tarixiy shaxslar, buyuk allomalarimizning qadriyatlari tiklanishini mustaqilligimizning dastlabki yillarida ro‘y bergan iqtisodiy va siyosiy bo‘xtonlar sharoitida amalga oshirganimiz chinakam qahramonlik bo‘lib, buning uchun xalqimiz yurtboshimizdan minnatdordir. Birinchi Yurtboshimizning “Tarixni bilmay turib kelajakni yaratib bo‘lmaydi” - degan so‘zlari hozirgi va kelgusi avlod uchun mustaqilligimizni mustahkamlash, uni har-xil balo- qazolardan asrash, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarda uning obro‘cini yanada yuqori ko‘tarish jahon hamjamiyatida nufuzini oshirish yo‘lida qilinadigan sa‘y harakatlari uchun dasturamal bo‘lib qolishiga ishonamiz. Bularning barchasi kelgusi avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning ma‘naviy jihatdan kamolga yetishida, har xil yot g‘oyalar va mafkurlarga aldanmasdan yanada maqsad yo‘lida birlashishiga, sobitqadam bo‘lishiga olib keladi, deb umid qilamiz.

Halqimizda “Bolani ko‘cha buzadi”- degan naql bor. To‘g‘rirog‘i bolani ko‘cha emas, balki e‘tiborsizlik, qarovsizlik buzadi. Biz yuqorida nomlarini keltirgan va muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan adabiyotlarga, ularni o‘qish, ularni mushohoda qilishga farzandlarimizga o‘rgata borsak, ularda milliy axloq aqidalarimizga bo‘lgan mustahkam e‘tiqodni shakllantira olsak, o‘ylaymanki ularni har qanday tashqi ta‘sir va axloqimizga yot bo‘lgan qarashlardan himoya qilgan bo‘lamiz.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yosh avlod bizning kelajagimiz, ularga berilgan to‘g‘ri tarbiya yuksak milliy axloq va e‘tiqod kelajagimiz xayrli bo‘lishini, millatimiz obro‘cini va nufuzini saqlab qolishimizni va uni yanada yuqori cho‘qqilarga ko‘tarishimizni ta‘minlaydi. Bu ishda bizga eng yaxshi qo‘llanma qanday janr va yo‘nalishda bo‘lmasin o‘zida axloqiy g‘oyalar, ibratli jumalarni aks ettirgan adabiyotlar bo‘lib qoladi. Radio va televideniya, teatr, kino san‘ati, musiqa va tasviriy san‘at bu ishda bizga ko‘mak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. I. A.Karimov “Barkamol avlod orzusi” Tosh. Sharq nashriyoti.1999-yil
2. I.A.Karimov “Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” T.Sharq nashr 1998-yil.
3. S.Dolimov “Qobusnoma” Tosh.O‘qituvchi nash,2006-yil.
4. J.To‘lanov “Qadriyatlar falsafasi” Tosh.O‘zbekiston nash.1998-yil.
- 5.O‘zbekiston Davlat Milliy Universiteti “Ma‘naviy salohiyati”Tosh.2009-yil.
6. Raxmatulloh Nosir “Olam yizin obod qil”Tosh. Yangi asr avlodi nash.2004-yil

7 Khasanova, Navbakhor (2020) “The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students.”MentalEnlightenment Scientific-Methodological Journal.Vol.2020 :Iss.2. Article 15.

[:https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15](https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15)

8. hasanova, navbahor. (2020). METHODS AND WAYS TO DEVELOP THE MUSICAL FEELINGS OF STUDENTS IN THE LESSONS OF MUSIC EDUCATION. *Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI*, 1(42). izvlecheno ot https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5579